

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

HAYDAROVA CHAROS KOSIMOVNA

**POLIMERLAR KIMYOSI FANIDAN 3D TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
INTERAKTIV QO‘LLANMA YARATISH**

13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation for doctor of philosophy (PhD)

Haydarova Charos Kosimovna

Polimerlar kimyosi fanidan 3D texnologiyalar asosida interaktiv qo‘llanma yaratish 3

Хайдарова Чарос Косимовна

Создание интерактивного пособия по химии полимеров на основе 3D-технологий 23

Khaydarova Charos Kosimovna

Creating an interactive book to polymer chemistry based on 3D technologies..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works47

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

HAYDAROVA CHAROS KOSIMOVNA

**POLIMERLAR KIMYOSI FANIDAN 3D TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
INTERAKTIV QO‘LLANMA YARATISH**

13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped4174 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume) Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://tik-titi.uz>) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kiyamov Nishon Sadikovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Tashpulatov Xurshid Shukurovich
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.K.02.05 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «6» dekabr soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Biokimyo instituti, Kimyo binosi. Tel.: (+99866) 239-12-47, faks: (0366) 239-11-40, e-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (92 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «20» dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «20» dekabr dagi № 9 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.M. Nasimov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

J.R. Uzoqov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash kotibi, k.f.f.d., (PhD)

E. Abduraxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti raqamli ta'lim resurslari, interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirib, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Oliy ta'limda innovatsion g'oyalarning tatbiq etilishi polimerlar kimyosi va yuqori molekulyar birikmalar kimyosi sohasida virtual texnologiyalar, sun'iy intellekt va VR texnologiyalardan foydalanib o'qitish, talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, o'qitishda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, faoliyat sohalari bo'yicha talabalarning samarali bilim olishlarini ta'minlash, kasbiy ko'nikma va malakalarni doimiy takomillashtirib zamon talablariga mos ta'lim berish dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Jahon ta'lim tizimini barqaror taraqqiyot tendensiyalariga moslashtirish sharoitida polimerlar kimyosi sohasida interaktiv ta'lim resurslari, 3D, VR hamda AR texnologiyalarini joriy qilish dolzarblik kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish, interaktiv ta'lim xizmatlarini sifatli amalga oshirish, kimyoviy jarayonlar va ta'lim muhitini faol axborot almashinish jarayonlari bilan integratsiyalash masalalari, mashg'ulotlarda multimedia, sun'iy intellekt, 3D hamda virtual texnologiyalaridan ommaviy foydalanish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda masofaviy ta'lim jarayonini modernizatsiyalash maqsadida Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Belarus, Turkiya, Hindiston, Latviya davlatlarining nufuzli oliy ta'lim muassasalari filiallari, qo'shma fakultetlar, qo'shma ta'lim markazlari tashkil qilinmoqda, ularning moddiy-texnik bazasi yaratilmoqda. "2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish, yangi darsliklar, Polimerlar kimyosi fani uchun mobil ilovalarni yaratish, yangi metodikalar bo'yicha maxsus video-darslar yaratish imkoniyatini ochib beradi"¹. Shu nuqtayi nazardan, polimerlar kimyosi sohasi bo'yicha malakali, keng dunyoqarashga ega, ijodkor va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash uchun tegishli didaktik, texnologik va motivatsion sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda polimerlar kimyosi sohasida ta'lim va ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish ham dolzarb vazifalardandir. Bu jarayonda universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ta'lim-tajriba integratsiyasini yo'lga qo'yish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 1-yanvardagi PF-60-son «2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". <https://ex.uz/uz/docs/5841077>

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida»gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri — "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish" doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari ushbu yo'nalishning dolzarb masalalariga yechim topish, ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida ta'lim tizimida innovatsion o'zgarishlar kiritish hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mustaqil ta'limda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy va metodik asoslari hamda elektron darsliklar, elektron ta'lim resurslari va dasturlar orqali metodikalarni yaratish, kimyo ta'limida qo'llash imkoniyatlari va afzalliklari bo'yicha mamlakatimiz olimlari U.Begimqulov, M.X. Lutfullayev, F.M. Zakirova, N.A. Qayumova, D.Toshtemirov, S.K. Dursunov, A.Hayitov, G.Ergasheva, G.Ixtiyarova, F.Alimova, M.Sh.Axadov, N.Jurakulova, Z.Ishmanovalarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil Hamdo'stlik mamlakatlarida elektron ta'lim texnologiyalarini o'rganish bo'yicha M.V.Goryainov, L.P.Grishchenko, T.A. Dyujeva (Ukraina), M.A. Ivanova, E.I. Mashbits, O.S. Stepanova (Rossiya) ilmiy tadqiqotlar olib borgan; fanlarning metodik ta'minotini ishlab chiqish, takomillashtirish, elektron ta'lim resurslari, masofali ta'lim kurslarini yaratish va ular yordamida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha V.V.Dovgan (Avstriya), I.V.Robert, E.E.Sivokon (Buyuk Britaniya) kabilar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Xorijlik olimlar: B.K.Atrostic (Nedirlandiya) S.V.Nguyen, E.Brynjolfsson (Germaniya), A.Mcafee, D.H.Autor (Meksika), D.Dorn, C.B.Frey (Polsha), M.A.Osborne (Irlandiya) va boshqalar o'z ilmiy ishlarida elektron ta'lim muhitida fanlarni o'qitish bilan bog'liq bir qator muammolarni yoritgan.

Biroq pedagogika va texnika oliy ta'lim muassasalarida Polimerlar kimyosi fanini o'qitishda VR, AR va 3D texnologiyalardan hamda elektron darsliklardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmagan. Olib borilgan ilmiy izlanishlar, adabiyotlar tahlili elektron ta'lim muhitida pedagogika oliy o'quv yurti kimyo ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan "Polimerlar kimyosi" fanini elektron ta'lim muhiti sharoitida noan'anaviy o'qitish metodlari, mustaqil ta'lim imkoniyatlari va vositalaridan foydalangan holda kasbga yo'naltirib o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy Universiteti rejasining A-OT-2021-133- «Kimyo

fanidan 3D texnologiyalariga asoslangan interaktiv qo'llanma yaratish» (2020-2021 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: neft - gaz sanoati ta'lim yo'nalishi talabalari uchun polimerlar kimyosi fanidan 3D texnologiyalar asosida interaktiv qo'llanma yaratish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy o'quv yurtlarida texnika, neft-gaz sanoati yo'nalishlari bo'yicha polimerlar kimyosi fanini o'qitish muammolarini aniqlash va ularning pedagogik va psixologik jihatlarini tahlil qilish;

3D va virtual texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayoniga kasbiy harakatchanlikni rivojlantirishni baholash va nazorat qilishning interaktiv tizimi orqali integratsiyani takomillashtirish orqali elektron qo'llanma va axborot muhitini yaratish;

raqamli ta'lim muhiti sharoitida parametrlar va ko'rsatkichlarning tushuntirish-motivatsion, kognitiv, texnologik, ijodiy mezonlari ustuvorligiga asoslangan mexanizm asosida polimerlar kimyosini o'qitish jarayonida talabalarning pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ilmiy kompetensiyasini shakllantirish;

raqamli ta'lim resurslari sharoitida polimerlar kimyosi bo'yicha takomillashtirilgan metodik ta'minotning interaktiv ta'lim usullaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini baholash mezonlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida texnika oliy o'quv muassasalari talabalariga takomillashtirilgan metodik ta'minot bo'lgan 3D, AR, VR texnologiyalar asosida polimerlar kimyosi fanini kasbga yo'naltirilgan holda mustaqil ta'lim orqali o'qitish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini texnika oliy o'quv yurti neft va gaz sanoati ta'lim yo'nalishlarida polimerlar kimyosi fanining takomillashtirilgan metodik ta'minoti asosida kasbga yo'naltirib o'qitishning mazmuni, shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalar, didaktik adabiyotlar, DTS, o'quv reja va dasturlar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik (kuzatish, suhbat, tashxislash, so'rovnoma, test), tajriba-sinov, monitoring natijalarini matematik statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnika yo'nalishi talabalari uchun "Polimerlar kimyosi" fanini o'qitishning pedagogik imkoniyatlari kimyoviy jarayonlarini 3D modellar vositasida vizuallashtirish va simulyatsiyalash orqali o'quv materiallarini kognitiv faoliyatga adaptiv-integrativ konstruksiyalash asosida aniqlashtirilgan;

kimyogar-texnologlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari AR texnologiyalarga asoslangan interaktiv qo'llanma vositasida kasbiy-amaliy tayyorgarligini intensivlashtirish va texnologik jarayonlar bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

“Polimerlar kimyosi” fanini o‘qitishning integratsiyalashgan ta’lim modeli 3D polimer.uz platformasi va interaktiv yo‘naltirilgan texnologiyalar vositasida takomillashtirilgan;

talabalarining “Polimerlar kimyosi” fanini o‘zlashtirish darajasini baholash samaradorligi interaktiv 3D qo‘llanma asosida kasbiy faoliyatga oid texnologik ko‘nikmalar hamda ijodkorlik mezonlariga mos ko‘rsatkichlarga muvofiq aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Texnika oliy ta’lim muassasalari neft va gaz sanoati yo‘nalishlari uchun 3D texnologiyalar asosida elektron ta’lim resursi ishlab chiqildi va ta’lim jarayoniga joriy etildi.

Polimerlar kimyosi fanidan ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini VR va AR texnologiyalari asosida tashkil etish imkonini beruvchi elektron o‘quv qo‘llanma yaratildi.

“3dpolimer.uz” nomli veb-sayt ishlab chiqildi va unda talabalarining mustaqil ta’limi uchun interaktiv elektron darsliklar, videodarslar, 3D modellash vositalari joylashtirildi.

Polimerlar kimyosi fanini o‘qitishda nostandart test topshiriqlari ishlab chiqildi va ularning samaradorligi amaliyotda sinovdan o‘tkazildi.

Ishlab chiqilgan elektron ta’lim resurslari va metodik tavsiyalar asosida talabalarining kasbiy kompetensiyalari, ijodiy fikrlashi va mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlantirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan ilmiy-metodik yondashuvlar, tanlangan tadqiqot usullari va foydalanilgan nazariy ma’lumotlarning rasmiy, ishonchli manbalarga asoslangani bilan ta’minlanadi. Tadqiqot davomida ilg‘or pedagogik, didaktik va texnologik konsepsiyalar asosida shakllantirilgan metodik yondashuvlar qo‘llanilgan bo‘lib, ular xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlar, amaliy tajriba va ilg‘or ta’limiy modellar bilan uyg‘unlashtirilgan.

Bundan tashqari, keltirilgan tahlil va natijalar tajriba-sinov ishlari asosida shakllantirilgan bo‘lib, ularning reprezentativligi, ya’ni umumlashtirish imkoniyati mavjud bo‘lgan ma’lumotlarga tayangan holda olib borilgani natijalarning ishonchliligini oshiradi. Tajriba natijalari matematik-statistik tahlil usullari, xususan, taqqoslash, dispersion tahlil, korrelyatsion bog‘liqlik va ishonchlilik ko‘rsatkichlari yordamida chuqur tahlil qilingan.

Tadqiqotda bildirilgan xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, ular orqali o‘quv jarayonining samaradorligi oshirilgan. Amaliyot natijalari esa tegishli ta’lim muassasalari va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan va ijobiy baholangan, bu esa olingan natijalarning haqiqatga mosligi va amaliy ahamiyatini yanada oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati

Mazkur tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati, “Polimerlar kimyosi” fanining mazmunini takomillashtirish, zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish va uni kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv asosida shakllantirish bilan izohlanadi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan ishchi dasturlar, elektron ta’lim resurslari

hamda ular asosida tuzilgan pedagogik loyiha fanning zamonaviy talablarga mos metodikasini yaratish imkonini beradi.

Taklif etilgan elektron ta'lim resursi va uning tarkibiy qismlari pedagogik-psixologik, texnik va didaktik talablar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ularning mazmunida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish, ijodiy fikrlashni shakllantirish, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan kimyo fanining integratsiyasi orqali zamonaviy kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash imkoniyati mavjud.

Bundan tashqari, tadqiqotda ta'lim jarayonida talabanning faolligini oshirish, o'zlashtirish darajasini individual nazorat qilish, mustaqil ta'limni boshqarish va kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishni yo'lga qo'yish kabi ilmiy-amaliy yondashuvlar asoslangan va ilmiy jihatdan asosli tavsiyalar shaklida ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, uning asosida ishlab chiqilgan elektron ta'lim resursi va metodik qo'llanmalar "Polimerlar kimyosi" fanidan o'tkaziladigan ma'ruza, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'lim darslarida samarali qo'llanishi mumkin. Ushbu resurslar orqali talabalarning fanga bo'lgan qiziqishi ortib, ular o'zlashtirish samaradorligini mustaqil ta'lim orqali mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ayniqsa, pedagogika oliy ta'lim muassasalarining kimyo yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mazkur elektron resurslar va metodik materiallar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o'zlashtirish, kasbiy faoliyatda mustaqil va ijodiy ishlash, o'qituvchilik faoliyatini samarali olib borishga tayyorlanishlariga xizmat qiladi.

Shuningdek, taklif qilingan resurslar ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilinishi va ular asosida ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish imkoniyatlari yaratilgani bilan ham amaliy qiymatga egadir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarga elektron ta'lim muhitida Polimerlar kimyosi fanini o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak kimyogar-texnologlarning kasbiy-sohaviy va texnologik kompetensiyalarini aniqlashtirish, motivatsion, kognitiv, faoliyatga doir komponentlarning Hemis tizimida masofaviy o'qitish jarayonini tashkil etishning individual ta'lim bilan integratsiyasini ta'minlashda (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazining 2024-yil 19-iyun 02-/01-01-54-sonli ma'lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada, oliy ta'lim muassasalarida polimerlar kimyosi fanidan 3D, VR va AR texnologiyalarini qo'llash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

Polimerlar kimyosi fanini o'qitishning tarkibiy asoslarini aniqlashtirish, fanini o'qitish jarayonida innovatsion elektron resurslar bazasidan foydalanishga doir integrativ modelning amaliy komponentini takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar asosida "Umumiy kimyo fanidan amaliy mashg'ulotlar" o'quv qo'llanmasining mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazining 2024-yil 19-iyun 02-/01-01-54-sonli ma'lumotnomasi) Natijada, texnika oliy o'quv yurtlarida polimerlar kimyosi fanini o'qitishda talabalarning

tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish, o'z faoliyatini mustaqil boshqarish va o'z ustida mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini bergan.

Elektron ta'lim muhiti sharoitida pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida, virtual ta'lim resurslaridan ta'lim amaliyotida foydalanib, C++ dasturlash va innovatsion 3D, VR va AR texnologiyalarini qo'llash orqali "Polimerlar kimyosi" fanidan elektron qo'llanma va <https://3dpolimer.uz> veb sayti yaratilgan. (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazining 2024-yil 19-iyun 02-/01-01-54-sonli ma'lumotnomasi). Natijada olib borilgan tadqiqot natijalari asosida "Polimerlar kimyosi" fanini o'qitish sifat samaradorligini keskin darajada oshirish imkonini bergan, o'quv jarayonining mazmuni esa zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan. Xususan, elektron ta'lim qo'llanmasiga integratsiyalangan QR kodlar orqali polimerlarning molekulyar tuzilishini vizual ko'rinishda taqdim etish orqali ma'ruza mashg'ulotlari samaradorligi ortdi, talabalarda fan mazmunini chuqurroq anglash, uni amaliy jihatdan tasavvur qilish imkoniyati yaratildi. Bundan tashqari, mutaxassislikka oid fanlarga bo'lgan qiziqish va ishtiyoq darajasi oshgani, talabalarining mustaqil ta'limga bo'lgan ishtiyoqi kuchaygani kuzatildi. QR kodlar yordamida interaktiv o'quv materiallariga tezkor kirish imkoniyati yaratilgani esa, darsda faol ishtirok etish, savol-javoblar asosida tahlil qilish va o'zlashtirish darajasini oshirdi.

Mazkur yondashuv natijasida polimerlar kimyosining murakkab nazariy tushunchalarini soddalashtirib yetkazish, ularni grafik, animatsion va modellashtirilgan shakllarda o'rgatish imkoniyati yaratildi, bu esa talabalarining kasbiy-texnologik kompetensiyalarini shakllantirishga bevosita xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta elektron-o'quv qo'llanma; O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari (PhD) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika, 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, o'n paragraf, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 101 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, hamda obyekt va predmetlari shakllantirilgan, tadqiqotlarning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi va ishonchliligi belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilish, e'lon qilingan ishlar bo'yicha ma'lumotlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirgan.

Dissertatsiyaning “Innovatsion ta’lim klasteri muhitida 3D texnologiyalardan foydalanishning nazariy va ilmiy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida dunyoda innovatsion ta’lim klasteri muhitida 3 D texnologiyalarni hamda taraqqiyot modellarini, ilg’or g’oyalar, “nou-xau” va “aqlli” texnologiyalarni joriy qilish bu yo’ldagi dolzarb muammolar haqida to’xtalib o’tilgan.

Jamiyatdagi jadal texnologik rivojlanishlar va o’zgarishlar o’qitish va o’qitishning bir qismi sifatida ta’lim jarayonlarini ham raqamlashtirishga o’z ta’sirini ko’rsatdi. Jahonning rivojlangan davlatlarida axborot texnologiyalari, shuningdek 3 D texnologiyalar, zamonaviy Augment reality, Virtual reality, mix reality va shunga o’xshash dasturlarni qo’llash asosida ta’limning axborotlashuvi jarayonlariga innovatsion ta’lim muhitini tatbiq etish orqali yuqori natijalarga erishilmoqda.

Respublikamizda kimyo fanlarini o’qitishda 3D, 4D AR texnologiyalar asosida yaratilgan elektron qo’llanma va darsliklardan onlane hamda oflayn darslarda foydalanish zamon talablaridan eng muhimlariga aylanmoqda. Internet texnologiyalari ham jadallik bilan rivojlanmoqda. Internet orqali ta’lim beruvchi maxsus repetitor va saytlar mavjud bo’lib, masofadan turib o’qish va o’qitish texnologiyalari hayotga joriy qilinmoqda. Bu ta’lim oluvchilarga ancha qulayliklar tug’dirmoqda. Bunda talabalar o’z yurtida turib boshqa davlatning oliygohlarida o’qishi va o’sha oliygoh diplomiga ega bo’lishi mumkin. Albatta bu ta’lim jarayonida ayniqsa mustaqil ta’limda 3D texnologiyalarni qo’llash orqali elektron darsliklardan foydalanishning ahamiyati juda kattadir.

Dunyo ta’lim tizimida elektron ta’lim resurslaridan foydalanib, fanlarning, ayniqsa Kimyo fanining metodik ta’minotini takomillashtirish, talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish, mashg’ulotlarda multimedia, axborot-kommunikatsion va 3D texnologiyalaridan ommaviy foydalanish masalalari tadqiq qilinmoqda. Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish, kimyo fanini o’qitishga 3D texnologiyalarini joriy qilish, o’qitishda nazariya va amaliyot uyg’unligini ta’minlash, yangi innovatsion texnologiyalarini joriy qilish, faoliyat sohalari bo’yicha talabalarga samarali bilim berish, kasbiy ko’nikma va malakalarni doimiy takomillashtirib borish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Oliy ta’limda talabalarning kognitiv fikrlash va samarali ta’limga bo’lgan faolligi va qiziqishini oshirish maqsadida turli raqamli va ilg’or texnologiyalar qo’llanilgan va bu g’oya yangilik emas. Fan-texnika jadal rivojlanib, shunday ixtirolar, innovatsion ishlanmalar, zamonaviy texnologiyalar yaratildiki, ular hayotimizdan chuqur o’rin olib, yashash sifatini butunlay yangi bosqichga olib chiqdi.

Hozirgi kunda o’quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda kasbiy faoliyatlarning o’z vakolatiga asoslangan holda yondashuvlarini amalga oshirish imkoniyatlarini ko’rib chiqish juda muhimdir. Buning uchun quyidagilarni ko’rib chiqamiz:

- Zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanish orqali o’quv jarayonini takomillashtirish;



- Innovatsion loyihalarni 3D modellardan foydalangan holda o'quv jarayoniga joriy etish;

- Talabani mustaqil ishlashi uchun materiallar bazasini takomillashtirish.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyatdagi axborot oqimlarining tarqalishini, global axborot maydonini shakllantirishni ta'minlaydigan inson faoliyatining barcha sohalariga kirib bordi. Ushbu jarayonlarning ajralmas qismi innovatsion ta'limdir. Ko'pgina hollarda o'qituvchi faoliyatining natijasi ma'lumotni uzatish jarayoni qanchalik bilimli va qiziqarli ekanligi, uning bilimlari qanchalik zarur ekanligini va bilimlarini chuqurlashtirishga yo'naltirilganligi qanchalik muhimligiga bog'liqdir.

Kompyuter texnologiyasini ishlab chiqish va ekranda eng murakkab texnologik jarayonlarni aks ettiradigan kuchli grafik protsessorlarning paydo bo'lishi bilan, ta'limda uch o'lchovli modellardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini takomillashtirishning yangi yo'nalishi paydo bo'ldi. O'quv jarayonida uch o'lchovli modellardan foydalanish favqulodda vaziyatlar va boshqa texnik hamda harbiy oliy o'quv yurtlarida yong'indan ogohlantirish, muhandislik, texnik va favqulodda vaziyatlarni qutqarish ishlarini tashkil qilish bilan bog'liq masalalarni o'rganishda interaktiv usulda darslar o'tkazishga va ko'nikma malakalarni rivojlantirishga yordam beradi. Davom etayotgan professional kasbiy ta'limning bir qismi sifatida bu ayniqsa muhimdir. Ma'lumki, kasbiy ta'lim sohasida malakaga asoslangan yondashuvning maqsadi mehnat bozori bilan o'zaro munosabatlarni takomillashtirish, ta'lim muassasalarining bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshirish, tarkibni, metodologiyani va tegishli o'quv muhitini yangilashdan iborat.

Zamonaviy kinoindustriya, arxitektura dizayn, hatto ta'lim sohasini olib qaraydigan bo'lsak, turli xil 3D maxsus effektlar orqali real jarayonlarni kuzatish mumkin. Polimerlar kimyosi fanidan ayrim laboratoriya mashg'ulotlarini ko'rish imkoniyati bo'lmaganda, 3D printerlardan kimyoviy ishlab chiqarish korxonalarining modellarini yasash, ko'rish va kimyoviy jarayonlarni tasavvur qilish mumkin.



1-rasm. Nuklein kislotalar va oqsillarning 3D ko'rinishi

Malakaga asoslangan yondashuv ta'lim maqsadlari, o'quv jarayonining mazmuni, shuningdek, o'quv jarayonining boshqa tarkibiy qismlari – ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishda nafaqat o'z talablarini qo'yadi balki bunday

yondashuv 3D loyihalar asosida o'qitish ya'ni innovatsion ta'lim hisoblanadi. 3D loyihalar asosida o'qitish tadqiqotining asosini 3D modellar tashkil etadi.

Polimerlar kimyosi fanidan ayrim laboratoriya mashg'ulotlarini ko'rish imkoniyati bo'lmaganda, 3D printelardan kimyoviy ishlab chiqarish korxonalarining modellarini yasash, ko'rish va kimyoviy jarayonlarni tasavur qilish mumkin.

3D printer bu uch o'lchovli printer - yaratilgan raqamli 3D modellari asosida ob'ektlarni shakllantirishga qodir bo'lgan qurilma. Mahsulotlar materialni qatlamlash orqali olinadi. Termoplastik va fotopolimer qatronlar asos bo'lib xizmat qiladi, ammo texnologiyalar rivojlanib, xomashyo sifatida ishlatiladigan materiallar soni ko'paymoqda (2-rasm).



2-rasm. 3D printerlar: Uch o'lchovli printer - bu yaratilgan raqamli 3D modellari asosida obyektlarni shakllantirishga qodir bo'lgan qurilma

3D printerlar - Uch o'lchamli chizmalar asosida narsa-buyumlarni "chop etuvchi" printerlardir. Hozircha bu kabi ishlanmalar tor doirada amalga oshirilayotgan bo'lsa, yaqin kelajakda bemaolol har hil sharoitlarda 3D-printerdan biz xohlagan buyumi chiqarib olishning imkoni bo'ladi .

Uch o'lchamli chop etilayotgan mahsulotlarning narxi pasayishini inobatga olsak, ushbu texnologiyaga talab oshmoqda. Bugungi kunda kimyo laboratoriyasida ishlatiladigan jihozlarning 100 dan ortiq detallarini 3D chop etish texnologiyasi asosida ishlab chiqarilmoqda. Mahsulotlarni ishlab chiqarish tartibi quyidagicha:

1. 3D modelni yaratish jarayoni davom etmoqda, ya'ni. kelajakdagi mahsulotning vizual qiyofasi barcha mutanosibliklarni saqlagan holda ishlab chiqilmoqda. Model maxsus dasturiy ta'minot yordamida yaratilgan.

2. Modelni yaratgandan so'ng, siz faylni qayta ishlashingiz kerak. Qayta ishlash faylni raqamli kodga aylantirishdan iborat bo'lib, u butun modelni ko'plab parallel qatlamlarga ajratadi. Shunday qilib, 3D qurilmasi uchun ob'ektni yaratish uchun materialni tarqatadigan buyruqlar hosil bo'ladi.

3. Oxirgi bosqich - mahsulotni 3D bosib chiqarish, ya'ni materialni qatlam-qatlam qo'llash orqali mahsulot yaratish jarayoni. Jarayon OY va OX o'qlari bo'ylab harakatlanadigan bosma bosh (ekstruder) yordamida amalga oshiriladi, ya'ni material faqat gorizontallik bo'ylab qatlamning dastur kodiga muvofiq beriladi. Keyingi qatlamni qo'llash uchun ekstruder vertikal qo'llanma bo'ylab (o'z o'qi

bo'ylab) qatlam o'lchamiga teng masofada siljiydi. Keyin keyingi gorizontal qatlam qo'llaniladi.

SLA texnologiyasi yoki stereolitografiya lazer shaklida energiya manbai ta'sirida qattiqlashadigan suyuq fotopolimer qatronlar yordamida mahsulotlarni bosib chiqaradi. Ushbu usul yordamida mahsulotlar juda aniq (15 mikrongacha). Ob'ektlar quyidagicha chop etiladi:

1. Ishchi sirt fotopolimer suyuqligi bo'lgan idishga bir qatlam chuqurligiga tushiriladi;

2. Energiya manbai (lazer) ob'ektning belgilangan koordinatalarida ob'ekt shaklini kesib tashlaydi;

3. Polimerizatsiya jarayoni davom etadi, natijada aloqa nuqtalarida qotish sodir bo'ladi;

4. Protsedura har bir qatlam uchun obyekt ishlab chiqarilgunga qadar takrorlanadi;


5. Ishlab chiqarilgandan so'ng, model yordamchi elementlardan tozalash uchun maxsus eritmasi bo'lgan idishga botiriladi;

6. Oxirgi bosqich - mahsulotni shakllantirish jarayonini tezlashtirish uchun ultrabinafsha nurlanish.

Stereolitografiya eng zamonaviy texnologiyalardan biri hisoblanadi, ammo buning uchun qimmat materiallar kerak. Bundan tashqari, ma'lum bo'lmagan bosib chiqarish turlari mavjud. Yillar davomida ushbu jarayonni yengillashtirish uchun turli xil alternativalar ishlab chiqildi, amalga oshirildi va muvaffaqiyat bilan foydalanildi. Diqqatga sazovor misollar orasida umumiy organik kimyo uchun Fisher proyeksiyasi, monosaxaridlar va siklik molekulalar uchun Xovort proyeksiyasi, alkan stereokimyosi uchun Nyuman proyeksiyasi va mashhur xanjar va tire belgisi kiradi. va Natta proyeksiyasi. Ushbu ikki o'lchovli vakillik sxemalari molekulalarning 3D strukturaviy xususiyatlarining bir qismini qo'lga kiritishga harakat qiladi. Ular tushunchalarni kiritishda juda samarali, lekin har doim ham talaba ongiga intuitiv bo'lavermaydi. Bundan tashqari, bu tasvirlar odatda cheklangan o'lchamdagi molekulalarning muayyan to'plamlari bilan chegaralanadi.

Augmented reality (AR): tekislikka har-xil sensor ko'rinishidagi ma'lumotlarni kiritish yordamida atrof-muhit haqida qo'shimcha axborotlarni hosil qilishdir. Bu texnologiya bizga atrofdagi 3D obyektlarni skanerlash, atrofdagi obyektlarni aniqlash imkoniyati bera oladi. Augmented reality texnologiyasi yoki maxsus ishlab chiqilgan dasturlar yordamida siz 3D obyektни xuddi real hayotdagidek qilib o'sha tekislikka joylashtirishingiz mumkin. Oliy ta'limda talabalarning kognitiv fikrlash va affektiv ta'limga bo'lgan faolligi va qiziqishini oshirish maqsadida turli raqamli va ilg'or texnologiyalar qo'llanilgan va bu g'oya darslarda olinayotgan bilimlar samaradorligini oshirishi bilan bir qatorda anchagina qulayliklarni ko'rishimiz mumkin (3-rasm).

Virtual reality VR: Virtual obyektlarning kuchi moddiy voqeylikning haqiqatiga o'xshash obyektning xavfsizligiga yaqin tutiladi. Kimyoviy jarayonlar, reaksiyalarni o'rganishda samarali yordam berishi bilan bir qatorda, virtual olam foydalanuvchilariga ko'pincha boshqa maqsadlarda ham ishlatishlari mumkin.



3-rasm. 3D va AR texnologiyalari asosida yaratilgan interaktiv elektron darslikdagi modellar

Jamiyatimizda har xil yoshdagi insonlar qalbidan 3D vizual, 3D hayot uch o'lchamli modellashtirish Maya, ZBrush, Blender, 3D Max, Nazzar.uz kabi ko'pgina programma mahsulotlari o'rin egallamoqda. "D" atamasi inglizcha

"dimensions" so'zidan olingan bo'lib, "o'lchamlar" ma'nosini beradi. 3D texnologiyasi tasvirni vizual va tovushli uzatib berishning dunyodagi eng ilg'or usuli hisoblanadi. Barcha aqlli insonlar 3 o'lchamli tasvir, uch o'lchamli grafika, uch o'lchamli modellashtirish kabi to'liq tushunchalarga egadirlar. Zamonaviy kinoindustriya, arxitektura dizayn hatto ta'lim sohasini olib qaraydigan bo'lsak, turli xil 3D maxsus effektlar orqali real jarayonlarni kuzatish mumkin. 3D texnologiyadan kimyo ta'limida virtual laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda qo'llanilsa, fanni o'qitishda yuqori samaradorlikka erishiladi. Bunda virtual kimyo laboratoriya xonalari veb-muhitda yaratiladi va tajribalar xoxlagancha bajarib ko'rish mumkinligi talabalarga tushuntiriladi. Portlash xavfi bor tajribalar, zaharli xususiyatga ega bo'lgan tajribalar ham virtual kimyo laboratoriyasida bajarib ko'rish mumkin va ketayotgan reaksiyalar natijalarini 3D shakldagi virtual rasmlarni yaqqol ko'rishlari mumkin (4-rasm).

V Academia virtual muxiti treninglar, turli o'yinlar, simulyatorlar, masterklasslar orqali yuqori ta'lim sifatini ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Virtual ta'lim texnologiyalarini amalga oshirish bo'yicha quyidagicha:

- Birinchidan, virtual ta'lim texnologiyalarini qo'llashning bizning ta'lim muhitimizga qo'llaganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy oqibatlarni jahon tajribasidan kelib chiqqan holda baholash;

- Ikkinchidan, o'zbek tilida virtual ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha qo'llanmalar tayyorlashga alohida e'tibor qaratish;

- Uchinchidan, milliy virtual ta'lim muhiti va qurilmalari yaratish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borish va tadqiqot natijasidagi dasturiy ta'minot va qurilmalarni targ'ibotini olib borish.

- To'rtinchidan, virtual ta'lim resurslarini ishlab chiqaruvchilarni hukumat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish kabi xulosa va takliflar berish mumkin.

Ta'limda xam masofaviy o'qitish texnologiyasini rivojlantirish buyicha esa quyidagi takliflarni tavsiya qilish mumkin.



4-rasm. Reaksiyalarni talabalarning 3D dasturi asosida virtual ko‘rinishidagi holati

1. Ta’lim berishda interaktiv usullaridan keng qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirishga erishiladi.

